



THE CONSTITUTION IN THE NEW EDITION CONTAINS PROVISIONS ON THE RIGHT TO WORK AND ITS IMPLEMENTATION

Abdurakhmon Yakubov
assistant of professor
Karshi State University
Uzbekistan, Karshi

ABOUT ARTICLE

Key words: labor law, the Constitution in the new edition, recruitment, labor protection, fair wages, Social Protection, state guarantees, citizens' rights, employee interests.

Received: 16.11.24

Accepted: 18.11.24

Published: 20.11.24

Abstract: This article analyzes the main aspects of the provisions related to labor law and its implementation in the Constitution of the new edition. Labor law is defined as the socio-economic rights of citizens, in the implementation of which state guarantees and amendments aimed at protecting the interests of employees are studied. The constitution describes the importance of new provisions regarding the right to Work, Employment, Security at work, fair pay, recreation, and social protection.

YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYADA MEHNAT HUQUQI VA UNI AMALGA OSHIRISHGA OID QOIDALAR

Abduraxmon Yakubov
dotsent v.b.
Qarshi davlat universiteti
O'zbekiston, Qarshi

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: mehnat huquqi, yangi tahrirdagi Konstitutsiya, ishga qabul qilish, mehnat muhofazasi, adolatli ish haqi, ijtimoiy himoya, davlat kafolatlari, fuqarolar huquqlari, xodimlar manfaatlari.

Annotatsiya: Ushbu maqolada yangi tahrirdagi Konstitutsiyada mehnat huquqi va uni amalga oshirishga oid qoidalarning asosiy jihatlari tahlil qilingan. Mehnat huquqi fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari sifatida belgilangan bo'lib, uning amalga oshirilishida davlat kafolatlari va xodimlar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan o'zgartishlar o'rganilgan. Konstitutsiyada mehnat qilish huquqi, ishga qabul qilish, ish o'rnida xavfsizlikni ta'minlash, adolatli ish

haqi olish, dam olish va ijtimoiy himoyaga oid yangi qoidalarning ahamiyati bayon etilgan.

ПОЛОЖЕНИЯ О ТРУДОВОМ ПРАВЕ И ЕГО РЕАЛИЗАЦИИ В КОНСТИТУЦИИ В НОВОЙ РЕДАКЦИИ

Абдурахмон Якубов

доцент и.о.

Каршинского государственного университет

Узбекистан, Карши

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: трудовое право, Конституция в новой редакции, трудоустройство, охрана труда, справедливая оплата труда, социальная защита, государственные гарантии, права граждан, интересы работников.

Аннотация: В этой статье анализируются основные аспекты трудового права и положения, касающиеся его реализации в Конституции в новой редакции. Трудовое право определяется как социально-экономические права граждан, в осуществлении которых изучаются государственные гарантии и изменения, направленные на защиту интересов работников. Конституция подчеркивает важность новых положений, касающихся права на труд, найма, обеспечения безопасности на рабочем месте, справедливой оплаты труда, отдыха и социальной защиты.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Konstitutsiyaviy komissiya a‘zolari bilan uchrashuvdagi nutqida “Bosh maqsadimiz – har bir yurtdoshimiz ushbu hujjatni mening Konstitutsiyam deb faxrlanadigan mukammal darajaga olib chiqishdir”[2], deb ta’kidlagan edi. Shu ma’noda, referendumga chiqarilishidan oldin loyiha misli ko‘rilmagan hajmda jamoatchilikning keng qatlamlari tomonidan sinchkovlik bilan muhokamadan o‘tkazilganligi, buning natijasida 220 mingdan ortiq takliflar kelib tushganligi, Konstitutsiyaviy qonun loyihasi ushbu takliflar asosida shakllanganligi yangi tahrirdagi Konstitutsiya tom ma’noda xalq Konstitutsiyasi ekanligidan dalolat beradi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasi xalq ovoz berganidan keyin qo‘shimcha hujjatlarsiz yoki tartib- taomillarsiz, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan referendum yakunlari rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

ASOSIY QISM

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasi bevosita xalq tomonidan qabul qilinsa, tariximizda to‘g‘ridan-to‘g‘ri amalga kiritiladigan birinchi hujjat bo‘ladi. Buning eng ahamiyatli tomoni, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga munosabat bildirilganida barchaning ovozi bir xil maqomga va kuchga ega ekanligidadir. Ya’ni, Konstitutsiya loyihasini

muhokama qilish jarayonida fuqaro qaysi kasbda, qanday lavozimda ekanligidan qat'i nazar, har bir insonning tanlovi va fikri ahamiyatli va hal qiluvchi bo'ladi.

Darhaqiqat, Yangi O'zbekiston sharoitida yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasining eng muhim jihatlari inson, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmati, daxlsiz huquqlari va manfaatlarini ta'minlash, erkin va adolatli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda demokratik huquqiy davlat qurish bilan bog'liq o'zgarishlar bilan muhim ahamiyatga ega.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasida huquqiy davlat prinsipini ro'yobga chiqarishga qaratilgan konstitutsiyaviy kafolatlar belgilanmoqda[1].

Davlat faoliyati qonun ustuvorligi asosida amalga oshirilishini ta'minlash uchun Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchga egaligi hamda uning to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi belgilanmoqda hamda inson huquq va erkinliklari xalqaro huquq va Konstitutsiya normalariga muvofiq kafolatlanmoqda. Bu boradaayniqsa, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasida ijtimoiy davlat prinsiplariga oid normalarning yanada mustahkamlanishi, xususan, sifatli ta'lim va tibbiy xizmat ko'rsatish, ijtimoiy ehtiyojmand qatlamni qo'llab-quvvatlash, munosib mehnat sharoiti va adolatli ish haqi tizimini yaratish, ishsizlikdan himoyalash, uy-joyga ega bo'lishga qaratilgan qoidalar bilan yanada takomillashtirilishi bilan bog'liqdir.

Fuqarolarning mehnat huquqlarini amalga oshirish, ularni ish bilan ta'minlash va ishsizlikdan himoyalash, munosib mehnat uchun munosib ish haqi bilan ta'minlash ijtimoiy davlatning asosiy shartlaridan biridir.

Shu bois Asosiy qonunda har bir shaxsning asosiy mehnat huquqlarini kafolatlash ularni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va himoya qilish nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 42-moddasida mehnat huquqi va uni amalga oshirishga oid quyidagi normalar belgilangan:

birinchidan, har kim munosib mehnat qilish huquqiga ega, degan norma mustahkamlanmoqda. Konstitutsiyaviy islohotlar doirasida fuqarolarning mehnat qilish huquqi yangicha qarash bilan boyitilib, "munosib" so'zi bilan to'ldirilmoqda. Endilikda "munosib mehnat" deganda, adolatli ish haqi to'lanadigan ish joylari, yetarli mehnat sharoitlari va ishonchli ijtimoiy himoya ko'zda tutilgan.

Shuningdek, har kim xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash huquqiga egaligi belgilangan. Xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlari deganda, xavfsizlik standartlari, sanitariya normalari va qoidalari, gigiyena normativlari talablari asosida ish joylarini tashkil etish tushuniladi. Bunday sharoit xodimlarni kasb kasalliklari, ishlab chiqarishdagi shikastlanishlar va insonlar o'limini

yoki sogʻligʻiga zarar yetkazishning oldini oladi.

Ushbu masala boʻyicha 2006 yilda Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan Mehnat xavfsizligi va gigiyenasiga koʻmaklashish asoslari toʻgʻrisidagi Konvensiya qabul qilingan boʻlib, Oʻzbekiston 2021 yilda ushbu hujjatni ratifikatsiya qilgan;

ikkinchidan, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq toʻlashning belgilangan eng kam miqdoridan kam boʻlmagan tarzda adolatli haq olish huquqiga ega, degan norma nazarda tutilgan. Shu maqsadda har yili mehnatga haq toʻlashning eng kam miqdori va bazaviy hisoblash miqdori belgilangan.

Oʻxshash normalar Ispaniya, Italiya, Portugaliya, Chexiya, Ruminiya, Xitoy, Turkiya kabi davlatlar konstitutsiyalarida belgilangan.

Mehnat huquqiga oid ushbu yangiliklar fuqarolarimizga hayoti va sogʻligʻi uchun zarar yetkazmaydigan ish joylarda ishlashga, mehnatiga yarasha munosib ish haqi olishga konstitutsiyaviy kafolat yaratadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda Oʻzbekiston oʻzini ijtimoiy davlat deb eʼlon qilgan. Ijtimoiy davlatda esa shaxsning munosib hayot kechirishi uchun yetadigan ish haqi olishi, bandligi taʼminlanishi, xavfsiz mehnat sharoitida ishlashi uchun shart-sharoitlar yaratilishi lozim.

Shu munosabat bilan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 42-moddasida “Mehnatga haq toʻlashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini taʼminlash zarurati hisobga olingan holda belgilanadi”[1], degan yangi norma belgilangan.

Insonning munosib yashashi deganda, insonning yashash xarajatlarini (oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshq.) qoplash, shuningdek taʼlim olish, sogʻliqni saqlash, dam olish va boshqa ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga ega boʻlishi tushuniladi.

Mehnat qilayotgan har bir inson asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli mablagʻga ega boʻlishi kerak. Oʻz navbatida, davlat shaxsga mehnatiga yarasha ish haqi toʻlanishining choralarini koʻrishi va kafolatlarini taʼminlashi, ish beruvchi esa xodim oldidagi majburiyatlarini bajarishi shart.

Mehnatga haq toʻlashning eng kam miqdori tushunchasi xalqaro qabul qilingan boʻlib, butun dunyoda keng tarqalgan ijtimoiy adolat prinsiplaridan biridir. Bu meʼyor mamlakatimizning xalqaro hujjatlari bilan oʻz zimmasiga olgan majburiyatlarida ham koʻzda tutilgan. Masalan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida har bir ishlovchi shaxs munosib yashashini taʼminlaydigan adolatli va qoniqarli daromad olish huquqiga ega ekanligi mustahkamlangan.

Shuningdek, Xalqaro mehnat tashkilotining Rivojlanayotgan davlatlar xususiyatlarini eʼtiborga olgan holda mehnatga haq toʻlashning eng kam miqdorini

belgilash to'g'risidagi konvensiyasida eng kam ish haqi darajasini aniqlashda mamlakatdagi ish haqining umumiy darajasi, iste'mol narxlari, ijtimoiy nafaqalar va boshqa ijtimoiy guruhlarning qiyosiy turmush darajasini hisobga olgan holda belgilanishi lozimligi ko'rsatilgan. Ish beruvchilar xodimga ish haqini belgilashda yuqoridagi talablarni inobatga olishlari lozim.

Mazkur yangi normaning Konstitutsiyada belgilanishi fuqarolarning ish haqlari miqdori shunchaki emas, aynan ularning munosib turmush kechirishini ta'minlashda, pirovard natijada aholi turmush darajasini yaxshilashda va mamlakatda ijtimoiy adolatni ta'minlashda amaliy ahamiyatga ega.

Fuqarolarni ishsizlikdan himoyalash, yangi ish o'rinlarini yaratish, kam- bag'allikni qisqartirish har qanday davlatning asosiy vazifalaridan biridir.

Shu boisdan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 43-moddasida "Davlat fuqarolarning bandligini ta'minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek kambag'allikni qisqartirish choralari ko'radi. Davlat fuqarolarning kasbiy tayyorgarligi hamda qayta tayyorlanishini tashkil etadi hamda rag'batlantiradi"[2], degan norma belgilangan.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirish orqali 2026 yilgacha kambag'allikni kamida ikki baravarga kamaytirish belgilangan. Buning uchun, norasmiy ishlayotgan 2,5 mln fuqaroning bandligini legallashtirish, ayollar orasidagi ishsizlik darajasini 2 baravarga kamaytirish, kasbga o'qitish ko'lamini 2 baravarga oshirish, ya'ni 1 mln nafar ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o'qitish, 700 mingdan ziyod ishsiz xotin-qizlarni davlat hisobidan kasb-hunarga o'qitish, ish bilan band bo'lmagan xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilish, shuningdek, hududlarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish orqali keyingi 5 yilda 3,5 mln yangi ish o'rinlarini yaratish ko'zda tutilgan.

O'zbekistonda davlat fuqarolarni ishsizlikdan himoya qilish va kambag'allikni qisqartirish choralari qatorida mahallalar kesimida ijtimoiy himoyaga muhtojlar ro'yxati ("Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" va "Mehr daftari") orqali mahallalarda ish yuritish yo'lga qo'yilgan. Fuqarolarimizning chet elda mehnat qilish huquqlarini amalga oshirish borasida ham ularni kasbiy tayyorlash va ishga joylashtirishning xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimi yaratildi. Bugungi kunda O'zbekistonda 30 dan ortiq davlatlardagi 475 dan ortiq ish beruvchilar bilan shartnomalar tuzilib, mehnat migrantlariga ishga joylashtirish, o'qitish, sug'urta, kredit, mikroqarz kabi 10 ga yaqin xizmatlar ko'rsatilmoqda.

Bunday normalar Italiya, Chexiya, Finlyandiya, Polsha, Xitoy kabi davlatlar konstitutsiyalarida ham nazarda tutilgan.

Konstitutsiyaga kiritilayotgan yangi norma ish bilan ta'minlanmagan fuqarolarni, ayniqsa, ishsiz ayollar sonini keskin kamaytirishga, fuqarolarni kambag'allik holatiga tushib qolishining oldini olishga yoki kambag'allik toifasiga kirib qolgan fuqarolarni undan chiqarish bo'yicha davlat tomonidan tegishli choralarini ko'rilishiga konstitutsiyaviy kafolat sifatida xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2022 yil 20 iyunda Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvda inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha amaldagi tizimning samarasini oshirish maqsadida Konstitutsiyamizda bolalar mehnatiga yo'l qo'yimaslikka alohida e'tibor qaratgan edi.

O'zbekiston Respublikasi 2008 yilda Xalqaro mehnat tashkilotining Bolalar mehnatining og'ir shakllarini taqiqlash va yo'q qilishga doir shoshilinch choralar to'g'risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilgan.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi va Jinoyat kodekslarida voyaga yetmagan shaxslarning mehnatidan foydalanishga yo'l qo'yilmasligi to'g'risidagi talablarni buzish, ya'ni voyaga yetmagan shaxs mehnatidan uning sog'lig'iga, xavfsizligiga yoki axloq- odobiga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan ishlarda foydalanish uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik choralari belgilangan[6].

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 44-moddasida "Bolalar mehnatining bolaning sog'lig'iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan uning ta'lim olishiga to'sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanadi"[1], degan qat'iy norma mustahkamlangan. Paxta dalalarida yoki boshqa qishloq xo'jaligi ishlarida, umuman, boshqa sohalarda ham bolalar mehnatidan foydalanish, ayniqsa, ularni jalb qilishning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha tizimli va qat'iy islohotlar natijasida O'zbekistonda bolalarning majburiy mehnati to'liq barham topdi. 2 millionga yaqin bolalar majburiy mehnatdan ozod qilindi.

Endilikda bu boradagi davlat siyosatini konstitutsiyaviy darajada mustahkamlashga qaratilgan muhim qadamlar tashlanmoqda.

Konstitutsiyamizga ilk marotaba kiritilayotgan mazkur norma mamlakatimizda ushbu sohada erishilgan yutuqlarni qat'iy mustahkamlaydi hamda bolalar sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishlari uchun muhim huquqiy kafolat bo'lib xizmat qiladi[7].

Ayni paytda, ushbu konstitutsiyaviy norma bolalarning sog'ligi, xavfsizligi, to'liq jismoniy, aqliy va ma'naviy rivojlanishiga tahdid solmaydigan, ta'lim olish jarayonini buzmaydigan tarzda mehnat qilishlariga to'sqinlik qilmaydi. Xususan, amaldagi Mehnat

kodeksiga muvofiq mehnatga tayyorlash uchun umumta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlarining o'quvchilarini ularning sog'ligi, xavfsizligi, to'liq jismoniy, aqliy va ma'naviy rivojlanishiga tahdid solmaydigan, ta'lim olish jarayonini buzmaydigan yengil ishni o'qishdan bo'sh vaqtda bajarishi uchun – ular o'n besh yoshga to'lganidan keyin ota-onasidan birining yoki ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslardan birining yozma roziligi bilan ishga qabul qilishga yo'l qo'yiladi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 25-moddasida “Har bir inson ... tibbiy xizmat va zarur ijtimoiy xizmatga ega bo'lishga hamda ishsizlik, kasallik, nogironlik, bevalik, qarilik yoki unga bog'liq bo'lmagan sharoitlarga ko'ra tirikchilik uchun mablag' bo'lmay qolgan boshqa hollarda ta'minlanish huquqiga ega”[1], deb belgilangan.

Bu huquqni ta'minlash – ijtimoiy davlatning asosiy vazifalaridan biridir. Konstitutsiyamizda O'zbekistonni – ijtimoiy davlat sifatida belgilanishi ijtimoiy ta'minot sohasida davlat siyosatini yanada samarali amalga oshirishning dolzarbligini oshiradi.

Shundan kelib chiqib, ijtimoiy adolat tamoyiliga amal qilish maqsadida yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 46-moddasida “Qonunda belgilangan pensiyalar, nafaqalar va boshqa turdagi ijtimoiy yordamning miqdorlari rasman belgilangan eng kam iste'mol xarajatlaridan oz bo'lishi mumkin emas”[1], degan norma mustahkamlangan.

Bu bilan, amaldagi Konstitutsiyadagi “tirikchilik uchun zarur eng kam miqdor” so'zlari o'rniga “eng kam iste'mol xarajatlaridan oz bo'lishi mumkin emas” degan so'zlar qo'llanilgan. Chunki “tirikchilik uchun zarur miqdor”, degan ko'rsatkich Xalqaro oziq-ovqat xavfsizligi tashkiloti tomonidan belgilangan normadan past hisoblanadi[8]. Qolaversa, tirikchilik deganda, faqatgina insonning yashab qolishi uchun qilinadigan xarajatlar tushuniladi, “eng kam iste'mol xarajatlarida” esa nafaqat oziq-ovqat, balki kiyim-kechak, turli xizmatlardan foydalanish, ta'lim olish, sog'liqni saqlash va boshqalar bilan ta'minlanishi tushuniladi.

2022 yilda tariximizda ilk bor pensiya va ijtimoiy nafaqalar miqdori minimal iste'mol xarajatlaridan kam bo'lmagan darajaga olib chiqildi. Misol uchun, 2017 yilda kam ta'minlangan 500 ming oila ijtimoiy yordam olgan bo'lsa, bugunga kelib 2 milliondan ortiq oilalarga ko'mak berilmoqda. Ajratilayotgan mablag'lar esa 7 barobar ko'paytirilib, yiliga 11 trillion so'mga yetdi.

XULOSA

Eng kam iste'mol xarajati deganda, insonning asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun bir oy davomida zarur bo'ladigan tovar va xizmatlarni sotib olishga yetadigan mablag' miqdori tushuniladi. Eng kam iste'mol xarajatlari miqdorini hisoblab chiqishda bugungi sharoitda

aholining real o'rtacha ijtimoiy xarajatlarini inobatga olish lozim[9].

Pensiya va boshqa ijtimoiy yordam turlari miqdorlarining eng kam iste'mol xarajatlaridan kam bo'lmashligi esa – fuqarolarning turmush darajasini yaxshilash, xarid qobiliyatini saqlab qolish, sog'lig'i, mehnat qilish salohiyatini saqlagan holda jamiyatning hech bir a'zosini e'tibordan chetda qolmasligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.
2. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvidagi nutqi. 2022-yil 20-iyun.
3. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. – T.: 2018-y.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – T.: «O'zbekiston» NMIU, 2019.
5. Bekov I. Konstitutsiyada o'qituvchi maqomi: Uchinchi Renessansning mustahkam zamini. // «Yangi O'zbekiston» gazetasi. 52-son, 6-mart 2023-yil.
6. Bobojonov M. Odil sudlovni amalga oshirishning konstitutsiyaviy asoslari. <https://constitution.uz/oz/> 2023-yil.
7. Isayeva F. Yangi Konstitutsiya kuchga kirdi! Nimalar o'zgardi «Inson va qonun» gazetasi. 19-son, 6-may 2023-yil.
8. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. 1948-yil 10-dekabr.
9. Islomov B. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya – huquqlarimizning mustahkam kafolati. <https://yuz.uz/07/04>. 2023-yil.
10. Odilqoriyev X.T. Konstitutsiya va ijtimoiy davlatchilik. – T.: Yuridik adabiyotlar publish, 2022-yil.
11. Saidov A. O'zbekiston konstitutsiyasi va odil sudlov huquqi. <https://xs.uz/uz/> // 2022-yil.
12. Salimov O. Yangi O'zbekiston davlati. – T.: Ma'naviyat, 2023-y.
13. Yangilanayotgan Konstitutsiya. 100 savolga 100 javob. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti. – Toshkent: «Adolat» milliy huquqiy axborot markazi, 2023-yil.
14. Ziyamuhammedova Sh. Shaxsga doir ma'lumotlar muhofazasi. // «Huquq» gazetasi, 20-son, 8-may 2023-yil.